



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 50 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmi	10
Mirzaraxmonova Maftuna Ibroximjon qizi	
Elementlarini integratsiya qilish: nazariy va amaliy yondashuv	13
Ne'matov Karimjon Shavkat o'g'li	
O'qish savodxonligi darslarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ...	19
Mahmudova Shoira Shavkat qizi	
O'zbek milliy musiqasi asosida talablarda estetik did va ijro madaniyatini rivojlantirish metodikasi.....	25
Gadoyeva Muborak Jumaqulovna	
O'quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari.....	30
Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna	
Xurshid Do'stmuhammad qissalarida rivoyatchi strategiyasi.....	34
Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining ahamiyati	37
Eshpulatov Shakir Nabiyevich, Ahrorova Ozoda Amriddinovna	
"Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (Mind Map) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish	41
G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-pedagogik jihatlari.....	46
Joldasov Ixtiyor Suyundikovich	



ELEMENTLARINI INTEGRATSIYA QILISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUV

Ne'matov Karimjon Shavkat o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti
Pedagogika tarixi va nazariyasi magistranti

Annotatsiya: Raqamli ta'lim muhitida hamkorlik pedagogikasi elementlarini samarali integratsiya qilishning nazariy asoslari hamda ularni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida boshlang'ich ta'lim bosqichida raqamli texnologiyalar va vositalar yordamida tashkil etilgan hamkorlikka asoslangan o'quv faoliyatining mazmuni, uni tashkil etish tamoyillari va pedagogik imkoniyatlari o'rganildi. Shuningdek, raqamli platformalar orqali amalga oshiriladigan jamoaviy ta'lim jarayonining o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi ahamiyati, ularning o'z fikrini erkin bayon etishi, tinglab tushunishi, muloqotga kirishishi hamda hamkorlikda muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqot davomida o'quvchilarning ijtimoiy faolligi, guruhda ishlash madaniyati va o'zaro mas'uliyat hissining oshgani kuzatildi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim muhiti, hamkorlik pedagogikasi, kommunikativ kompetensiya, 4K-ko'nikmalar, interfaol metodlar.

Abstract: Theoretical foundations of effectively integrating elements of collaborative pedagogy into the digital educational environment, as well as the mechanisms of their practical implementation, are scientifically analyzed. During the study, the content, organizational principles, and pedagogical opportunities of collaborative learning activities organized through digital technologies and tools at the primary education stage were examined. In addition, the role of collective learning processes carried out through digital platforms in developing students' communicative competence was analyzed, including their ability to express ideas freely, comprehend spoken information, engage in communication, and solve problems collaboratively. The study also revealed an increase in students' social activity, group work culture, and sense of mutual responsibility.

Key words: digital educational environment, collaborative pedagogy, communicative competence, 4K skills, interactive methods.

Аннотация: Теоретические основы эффективной интеграции элементов педагогики сотрудничества в цифровую образовательную среду, а также механизмы их практического внедрения подвергнуты научному анализу. В ходе исследования были изучены содержание, принципы организации и педагогические возможности учебной деятельности, основанной на сотрудничестве и организованной с использованием цифровых технологий и средств на этапе начального образования. Также был проанализирован процесс коллективного обучения, реализуемый через цифровые платформы, и его значение в формировании коммуникативной компетенции учащихся, развитии навыков свободного выражения собственного мнения, аудирования, общения и совместного решения проблем. В ходе исследования наблюдалось повышение социальной активности учащихся, культуры групповой работы и чувства взаимной ответственности.

Ключевые слова: цифровая образовательная среда, педагогика сотрудничества, коммуникативная компетенция, 4К-навыки, интерактивные методы.

KIRISH

Ta'lim tizimining hozirgi zamonaviy bosqichida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi o'qitish jarayonining mazmuni, shakli va tashkiliy tuzilmasini tubdan qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida an'anaviy, asosan, o'qituvchi markazida tashkil etilgan ta'lim modellari asta-sekin o'quvchi markaziga yo'naltirilgan, faol ishtirokni ta'minlaydigan hamda interaktiv va hamkorlikka asoslangan yondashuvlar bilan almashmoqda^[4]. Bunday o'zgarishlar ta'lim jarayonining sifatini oshirish bilan birga, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy yondashuvi, ijodiy salohiyati hamda axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishga keng imkoniyat yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish eng dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida qaraladi. Chunki aynan ushbu yosh davrida shaxsning nutqiy faolligi, ijtimoiy munosabatlarga kirishish ko'nikmalari, muloqot madaniyati hamda bilishga bo'lgan qiziqishi shakllanadi va keyingi ta'lim bosqichlari uchun mustahkam poydevor yaratiladi^[1]. Shu sababli boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonini to'g'ri, maqsadli va ilmiy asosda tashkil etish bolaning kelajakdagi akademik muvaffaqiyati hamda ijtimoiy moslashuvchanligida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Mazkur nuqtayi nazardan qaraganda, raqamli ta'lim muhitida hamkorlik pedagogikasi elementlarini integratsiya qilish nafaqat dolzarb, balki strategik ahamiyatga ega ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Hamkorlik pedagogikasi ijtimoiy-konstruktivistik yondashuvga tayanib, bilimning tayyor shaklda uzatilishini emas, balki o'quvchilar o'rtasidagi faol o'zaro ta'sir, muloqot, muhokama va birgalikdagi faoliyat jarayonida shakllanishini asosiy tamoyil sifatida ilgari suradi^[1]. Bunday yondashuv o'quvchini passiv qabul qiluvchi emas, balki bilimni mustaqil ravishda quruvchi faol subyekt sifatida shakllantiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda hamkorlikda o'qitishning samaradorligi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan asoslab berilgan.

Jumladan, J. Dewey ta'lim jarayonini faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish emas, balki real faoliyat orqali o'rganish zarurligini ta'kidlaydi^[2]. Uning fikricha, o'quvchi real hayotiy faoliyat va tajriba orqali bilimni chuqurroq anglaydi hamda uni amaliy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini rivojlantiradi. Bu yondashuv ta'limni hayot bilan uzviy bog'lash g'oyasini ilgari suradi va o'quvchini faol izlanishga undaydi.

D. Johnson va R. Johnson tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham hamkorlikda o'qitish texnologiyalarining ilmiy asoslangan samaradorligini tasdiqlaydi^[3]. Ularning xulosalariga ko'ra, guruh bo'lib ishlash va hamkorlikdagi o'quv faoliyati nafaqat o'quvchilarning akademik yutuqlarini oshiradi, balki ularning ijtimoiy o'zaro munosabatlari, mas'uliyat hissi, empatiya va kommunikativ ko'nikmalarini ham sezilarli darajada rivojlantiradi. Bu esa ta'lim jarayonining kompleks tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarini kuchaytiradi.

Mahalliy pedagog olimlardan R. J. Ishmuhamedov interfaol metodlarning ta'lim jarayonidagi o'rnini alohida ta'kidlab, ularning o'quvchilarni faol o'quv jarayoniga jalb etish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish hamda o'quv motivatsiyasini oshirishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab bergan^[7]. Uning qarashlariga ko'ra, interfaol yondashuv o'quvchini ta'lim jarayonining markaziy subyektiga aylantiradi va bilimni ongli o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, O'.Q. Tolipov va M. Usmonboyeva pedagogik texnologiyalarning tizimlilik tamoyiliga asoslanishini ta'kidlab, ta'lim jarayonining barcha komponentlari – maqsad, mazmun, metod, vosita va natija – o'zaro uzviy bog'liq holda tashkil etilishi zarurligini ilmiy asoslab berganlar^[8]. Ularning fikricha, tizimli yondashuv ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili bo'lib, pedagogik jarayonni yaxlit tizim sifatida ko'rish imkonini beradi.

Umuman olganda, yuqoridagi nazariy qarashlar va ilmiy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim muhitida hamkorlik pedagogikasi elementlarini integratsiya qilish zamonaviy ta'lim tizimining eng istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Bu esa nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga, balki ularning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida belgilangan maqsad va vazifalarga erishish uchun o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan bir qator ilmiy-pedagogik metodlardan kompleks va tizimli ravishda foydalanildi. Ushbu metodlar o'rganilayotgan muammoni ko'p qirrali yondashuv asosida tahlil qilish, pedagogik jarayonni real sharoitda kuzatish, olingan ma'lumotlarni chuqur qayta ishlash hamda yakuniy xulosalarning ilmiy asoslanganligi va ishonchligini ta'minlashda muhim rol o'ynadi. Shu bilan birga, metodlarning uyg'un qo'llanilishi tadqiqot natijalarining obyektivligi va amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qildi.

Tadqiqotda asosiy o'rinlardan birini pedagogik tajriba metodi egalladi. Ushbu metod yordamida boshlang'ich ta'lim jarayonida raqamli ta'lim muhiti sharoitida hamkorlik pedagogikasi elementlarini amaliy qo'llash samaradorligi tajriba-sinov asosida o'rganildi. Tajriba jarayoni maxsus reja asosida tashkil etilib, unda o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligi, topshiriqlarni bajarishdagi ishtiroki, guruhli faoliyatdagi o'zaro munosabatlari hamda raqamli vositalardan foydalanish darajasi bosqichma-bosqich kuzatib borildi. Har bir bosqichda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarida yuz berayotgan o'zgarishlar alohida mezonlar asosida qayd etilib, ularning rivojlanish dinamikasi tahlil qilindi. Bu esa raqamli hamkorlik muhitining ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sirini aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida kuzatish metodi ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etdi. Dars mashg'ulotlari davomida o'quvchilarning guruh bo'lib ishlash jarayoni, o'zaro muloqot shakllari, fikr almashish faolligi, tash-



abbus ko'rsatish darajasi hamda raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish madaniyati muntazam ravishda kuza-tildi va maxsus qayd etib borildi. Ushbu kuzatishlar orqali o'quvchilarning tabiiy ta'lim muhitidagi xulq-atvori, hamkorlikka kirishish tezligi va muloqotdagi faolligi haqida ishonchli empirik ma'lumotlar to'plandi. Natijada pedagogik jarayonning real holati va uning samaradorlik darajasi yanada aniqroq yoritildi.

Tahlil metodi yordamida yig'ilgan barcha empirik ma'lumotlar tizimli ravishda o'rganildi, o'zaro solishtirildi va ilmiy jihatdan umumlashtirildi. O'quvchilarning o'quv natijalari, kommunikativ kompetensiyalaridagi o'zgarishlar, nutqiy faollik darajasi hamda hamkorlikdagi ishtirok ko'rsatkichlari maxsus pedagogik mezonlar asosida chuqur tahlil qilindi. Bu jarayon natijalarni faqat tavsiflash bilan cheklanib qolmay, balki ularning sabab-oqibat bog'liqligini aniqlash imkonini ham berdi. Shu tariqa tadqiqot natijalari mazmunan boyitilib, ilmiy asoslangan xulosalarga kelindi.

Olingan natijalarning ishonchliligini yanada mustahkamlash maqsadida statistik ishlov berish metodidan ham keng foydalanildi. Ushbu bosqichda tajriba va nazorat guruhleri ko'rsatkichlari matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, ularning o'zaro farqlari, o'sish dinamikasi hamda samaradorlik darajasi aniqlandi. Statistik tahlil natijalari asosida o'zgarishlarning miqdoriy va sifat jihatli ilmiy asosda izohlandi, bu esa tadqiqot xulosalarining obyektivligi va ishonchliligini sezilarli darajada oshirdi.

Tajriba asosan boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirokida tashkil etildi. Tadqiqot davomida ularning kommunikativ faolligi, muloqotga kirishish darajasi, fikrni erkin ifodalash ko'nikmalari hamda guruhda ishlash jarayonidagi ishtiroki alohida mezonlar asosida baholandi. Shuningdek, o'quvchilarning o'zaro hamkorlikka munosabati, topshiriqlarni bajarishdagi mas'uliyati va raqamli ta'lim vositalaridan foydalanishdagi mustaqilligi ham tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, raqamli ta'lim muhiti sharoitida tashkil etilgan hamkorlik faoliyati o'quvchilarning nafaqat akademik bilim darajasini oshiradi, balki ularning ijtimoiy faolligi, kommunikativ madaniyati va jamoada ishlash ko'nikmalarini ham sezilarli darajada rivojlantiradi. Bu esa mazkur yondashuvning zamonaviy ta'lim jarayonida yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan pedagogik tajriba ishlari natijalari raqamli ta'lim muhiti bilan hamkorlik pedagogikasi elementlarini uyg'unlashtirish boshlang'ich ta'lim jarayonida yuqori darajadagi samaradorlikni ta'minlashini yaqqol ko'rsatdi. Tajriba jarayoni tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilib, unda o'quvchilarning kundalik o'quv faoliyati, dars jarayonidagi ishtiroki, raqamli ta'lim resurslari bilan ishlash darajasi hamda topshiriqlarni bajarishdagi faolligi muntazam ravishda kuzatib borildi. Shu bilan birga, ularning kommunikativ, ijtimoiy va kognitiv ko'nikmalaridagi o'zgarishlar dinamik tarzda tahlil qilinib, har bir bosqich bo'yicha pedagogik xulosalar shakllantirildi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Olingan natijalarga ko'ra, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi sezilarli darajada rivojlanganligi aniqlandi. Tajriba boshlanishida ayrim o'quvchilar o'z fikrini erkin ifodalashda tortinchoqlik, fikrni mantiqan izchil bayon etishda qiyinchilik sezgan bo'lsalar, jarayon yakuniga kelib, ular o'z qarashlarini aniq, asosli va ketma-ketlikda ifodalashga erishdilar. Dars jarayonlarida savollarga javob berish, muhokamalarda ishtirok etish hamda o'z fikrini dalillar bilan asoslash ko'nikmalari sezilarli darajada mustahkamlandi. Eng muhimi, o'quvchilarda boshqalarning fikrini tinglash, uni hurmat qilish va muhokama jarayonida konstruktiv munosabat bildirish madaniyati shakllana boshladi. Bu esa ularning muloqot madaniyati va ijtimoiy moslashuvchanlik darajasi ham oshganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, o'quvchilarning nutqiy faolligi va ifoda imkoniyatlari ham sezilarli darajada kengaydi. Tajriba davomida ular savollarga tezkor, asosli va izchil javob berish, guruh muhokamalarida faol ishtirok etish hamda o'z fikrlarini turli dalillar orqali mustahkamlashga intildilar. Raqamli ta'lim vositalari asosida tashkil etilgan interaktiv topshiriqlar, onlayn mashqlar, multimediyaga materiallari va hamkorlikdagi faoliyatlar o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada ular o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma va raqamli shakllarda ham ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ldilar, bu esa ularning kommunikativ imkoniyatlarini yanada kengaytirdi.

Shuningdek, tajriba natijalari o'quvchilarda jamoaviy ishlash kompetensiyalarining ham sezilarli darajada shakllanganini ko'rsatdi. Guruhli topshiriqlarni bajarish jarayonida ular o'zaro hamkorlik qilish, vazifalarni adolatli taqsimlash, bir-birini qo'llab-quvvatlash, fikrlarni muvofiqlashtirish va umumiy maqsad sari birgalikda harakat qilish ko'nikmalarini egalladilar. Bu jarayon ularda nafaqat mas'uliyat hissini, balki ijtimoiy faollik va tashabbuskorlikni ham rivojlantirdi. Natijada o'quvchilar jamoada ishlash madaniyatini o'zlashtirib, umumiy nati-jaga erishishda har bir a'zoning hissasi muhimligini anglab yetdilar.

Mazkur natijalar R. J. Ishmuhamedov tomonidan ilgari surilgan interfaol metodlarning ta'lim jarayonidagi samaradorligi haqidagi ilmiy qarashlarni amaliy jihatdan yana bir bor tasdiqladi^[7]. Olim ta'kidlaganidek, interfaol yondashuv o'quvchilarning ta'lim jarayoniga faol jalb etilishini ta'minlaydi, ularning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda hamkorlikda o'qish jarayonini samarali tashkil etish uchun keng imkoniyatlar

yaratadi. O'tkazilgan pedagogik tajriba natijalari ham aynan ushbu nazariy qarashlarning real ta'lim amaliyotida o'z tasdig'ini topganini ko'rsatdi va raqamli ta'lim hamda hamkorlik pedagogikasini integratsiya qilishning dolzarb va samarali yondashuv ekanligini yana bir bor isbotladi.

Raqamli ta'lim muhiti zamonaviy pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. U o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtiruvchi, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiruvchi hamda hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantiruvchi muhim didaktik platforma sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, raqamli ta'lim muhiti bir qator asosiy imkoniyatlarni taqdim etadi.

Birinchidan, u interaktiv muloqot muhitini yaratadi^[5]. Bunday muhitda o'quvchilar o'qituvchi va tengdoshlari bilan tezkor aloqa o'rnatish, fikr almashish hamda savol-javob jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ta'lim jarayonining jonli va samarali kechishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, raqamli ta'lim muhiti multimediyaviy ta'lim vositalaridan foydalanish imkonini beradi^[5]. Video, audio, animatsiya, grafik materiallar va interaktiv topshiriqlar o'quvchilarning mavzuni chuqurroq tushunishiga yordam beradi hamda ularning qiziqishini oshiradi. Bu esa bilimlarni eslab qolish va amaliy qo'llash samaradorligini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Uchinchidan, ushbu muhit individual yondashuvni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratadi^[4]. Har bir o'quvchining qobiliyati, tezligi va ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashtirilgan topshiriqlar berish imkoniyati mavjud bo'lib, bu ta'limning shaxsga yo'naltirilganligini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, raqamli ta'lim muhiti hamkorlik faoliyatini tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi^[3]. Onlayn guruh ishlari, loyihaviy faoliyat, forumlar va virtual sinf xonalari orqali o'quvchilar birgalikda ishlash, muammolarni jamoaviy hal qilish va o'zaro tajriba almashish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Nishonova o'z tadqiqotlarida o'quvchilarning psixologik rivojlanishida muloqot jarayonining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi^[9]. Unga ko'ra, muloqot shaxsning ijtimoiylashuvi, o'zini anglash va faoliyatga kirishishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, raqamli ta'lim muhiti aynan ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi, chunki u o'quvchilarga keng va qulay muloqot maydonini yaratib beradi hamda ularning kommunikativ rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida raqamli ta'lim muhitida hamkorlik pedagogikasini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan yaxlit metodik model ishlab chiqildi. Ushbu model o'quv jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etishga xizmat qilib, o'quvchilarning faolligini oshirish, ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish hamda hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan. Model to'rt asosiy bosqichdan iborat bo'lib, har bir bosqich o'ziga xos pedagogik vazifalarni bajaradi.

Birinchi bosqich – motivatsion bosqich hisoblanadi. Ushbu bosqichda o'quvchilarda o'rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish va ichki ehtiyojni shakllantirish maqsadida muammoli vaziyatlar yaratiladi. Muammoli topshiriqlar, savol-javoblar hamda hayotiy misollar orqali o'quvchilarni fikrlashga undash ta'minlanadi. Bu esa ularning o'quv jarayoniga faol jalb etilishiga zamin yaratadi.

Ikkinchi bosqich – tashkiliy bosqich bo'lib, unda o'quvchilar maqsadga muvofiq ravishda kichik guruhlariga ajratiladi. Guruhlar tarkibi o'quvchilarning bilim darajasi, faolligi va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda shakllantiriladi. Bu bosqich hamkorlik faoliyatining samarali tashkil etilishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, jamoada ishlash madaniyatini rivojlantiradi.

Uchinchi bosqich – amaliy bosqich hisoblanadi. Ushbu bosqichda raqamli platformalar va zamonaviy ta'lim vositalari orqali o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati amalga oshiriladi. Onlayn muhitda topshiriqlar bajarish, birgalikda loyiha ustida ishlash hamda fikr almashish jarayonlari tashkil etiladi. Bu esa o'quvchilarning nafaqat bilimlarini, balki raqamli ko'nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi.

To'rtinchi bosqich – refleksiya bosqichi bo'lib, unda bajarilgan ishlar natijalari tahlil qilinadi va baholanadi. O'quvchilar o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash hamda xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu orqali ularning o'z-o'zini baholash va tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Mazkur ishlab chiqilgan model o'z mazmuni va tuzilishiga ko'ra Tolipov va Usmonboyeva tomonidan ilgari surilgan tizimli yondashuv tamoyillariga to'liq mos keladi^[8]. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonini yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish, uning barcha bosqichlarini o'zaro bog'liq holda tashkil etish hamda samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim muhitida hamkorlik pedagogikasi elementlarini izchil va maqsadli qo'llash o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Zamonaviy raqamli vositalar asosida tashkil etilgan hamkorlik faoliyati o'quvchilarning nafaqat bilim olish jarayonini faollashtiradi, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



Avvalo, bunday yondashuv o'quvchilar faolligini oshirishi bilan ajralib turadi. Raqamli platformalar orqali tashkil etilgan interaktiv topshiriqlar, guruhli muhokamalar va onlayn hamkorlik faoliyati o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Ular mustaqil fikrlashga, tashabbus ko'rsatishga hamda o'z fikrini erkin ifodalashga ko'proq intiladilar. Shuningdek, raqamli muhitda hamkorlik asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bilimlarni chuqur va mustahkam o'zlashtirishga yordam beradi. O'quvchilar birgalikda ishlash jarayonida mavzuni turli nuqtayi nazardan tahlil qiladilar, o'zaro fikr almashadilar va muammoni birgalikda hal etadilar. Bu esa o'quv materialining mazmunini yaxshiroq tushunish va uzoq muddatli xotirada saqlash imkonini yaratadi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari o'quvchilarda ijtimoiy ko'nikmalarning rivojlanishini ham ko'rsatdi [3]. Hamkorlik faoliyati jarayonida ular jamoada ishlash, o'zaro muloqot qilish, boshqalarning fikrini hurmat qilish hamda mas'uliyatni bo'lishish kabi muhim ijtimoiy kompetensiyalarni egallaydilar. Bu esa ularning nafaqat ta'lim jarayonida, balki kelajakdagi ijtimoiy hayotida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, raqamli muhitda hamkorlik pedagogikasini qo'llash ta'lim sifatini oshirishga, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga hamda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik yondashuv sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalar orqali tashkil etilgan hamkorlik faoliyati o'quvchilarning bilim olish jarayonini sezilarli darajada faollashtiradi. Xususan, guruhli topshiriqlar, onlayn muhokamalar va jamoaviy loyihalar orqali o'quvchilar o'zaro fikr almashish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ishmuhamedovning fikricha, interfaol metodlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi [7]. Shu sababli raqamli ta'lim muhitida ushbu metodlardan foydalanish o'quvchilarning kommunikativ faolligini oshiradi.

Tolipov va Usmonboyeva tomonidan ilgari surilgan tizimlilik tamoyiliga asoslanib, hamkorlik faoliyatini bosqichma-bosqich tashkil etish zarur [8]. Bu esa o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ta'lim natijalarini yaxshilaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari raqamli ta'lim muhitida hamkorlik pedagogikasi elementlarini izchil, maqsadli va tizimli ravishda integratsiya qilish ta'lim jarayonining nafaqat sifatini, balki uning umumiy samaradorligini ham sezilarli darajada oshirishini yaqqol ko'rsatdi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar va interaktiv platformalar asosida tashkil etilgan hamkorlikka yo'naltirilgan o'quv faoliyati o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtiribgina qolmay, balki ularning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi hamda kommunikativ kompetensiyalarining shakllanishiga ham kompleks va ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Avvalo, bunday yondashuv ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Raqamli platformalar, elektron ta'lim resurslari va interaktiv vositalar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarga mavzuni chuqurroq va ongli ravishda o'zlashtirish imkonini beradi. Guruhli topshiriqlar, onlayn muhokamalar, hamkorlikdagi loyihalar hamda raqamli mashqlar orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni egallaydilar, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmasini ham rivojlantiradilar. Shu bilan birga, ta'lim jarayonining interaktiv, qiziqarli va motivatsion xarakterga ega bo'lishi o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning o'quv faoliyatida barqaror ishtirokini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, raqamli ta'lim muhiti sharoitida hamkorlik pedagogikasini qo'llash o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar o'z fikrini erkin va mantiqan izchil ifodalash, boshqalarning fikrini tinglash va tahlil qilish, o'zaro muloqotga kirishish hamda jamoaviy muhokamalarda faol ishtirok etish orqali nutqiy va ijtimoiy ko'nikmalarini sezilarli darajada mustahkamlaydilar. Bunday jarayonlar ularning muloqot madaniyatini shakllantirib, o'zaro hurmat, hamkorlik va empatiya kabi muhim shaxsiy fazilatlarining rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Natijada o'quvchi nafaqat bilim egasi, balki jamiyatda faol muloqot qila oladigan shaxs sifatida shakllanadi.

Uchinchidan, mazkur yondashuv o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi rolini tubdan o'zgartiradi. Ular endilikda bilimni faqat qabul qiluvchi passiv ishtirokchi emas, balki uni izlab topuvchi, tahlil qiluvchi, muhokama qiluvchi va hamkorlikda yaratishda faol ishtirok etuvchi subyektga aylanadilar. Bu esa ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini, tanqidiy yondashuvini, tashabbuskorligini hamda shaxsiy mas'uliyat hissini sezilarli darajada rivojlantiradi. Shuningdek, o'quvchilarda o'z faoliyatini rejalashtirish, qaror qabul qilish va jamoada mas'uliyatni bo'lishish ko'nikmalari ham shakllanadi.

Bundan tashqari, raqamli hamkorlik muhiti o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalari deb ataluvchi muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Jumladan, raqamli savodxonlik, axborotni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish, kreativ yondashuv va jamoaviy ishlash kabi ko'nikmalar ularning kelajakdagi ta'lim va kasbiy faoliyatida muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan qaraganda, raqamli ta'lim va hamkorlik

pedagogikasining uyg'unligi zamonaviy ta'lim tizimining eng dolzarb va istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, raqamli ta'lim muhitida hamkorlik pedagogikasi elementlarini integratsiya qilish ta'lim jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Shu sababli ushbu yondashuvni ta'lim amaliyotiga keng joriy etish, uni metodik jihatdan takomillashtirish, pedagogik texnologiyalar bilan boyitish hamda pedagog kadrlarning kasbiy faoliyatida samarali qo'llash bugungi kun ta'lim tizimi uchun dolzarb va zarur vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva, 1982. – 245–312-betlar.
2. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916. – 89–156-betlar.
3. Johnson D., Johnson R. Cooperative Learning. – Minnesota: Interaction Book Company, 1994. – 34–78-betlar.
4. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020. – 3–27-betlar.
5. UNESCO. Digital Learning Framework. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 12–65-betlar.
6. OECD. Education in the Digital Age. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 45–110-betlar.
7. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2017. – 58–134-betlar.
8. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2010. – 71–145-betlar.
9. Nishonova Z.T. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent, 2018. – 96–173-betlar.
10. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2008. – 52–120-betlar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.